



Nuriya ABDULLAYEVA,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi  
E-mail: maftunabd99@gmail.com

Filologiya fanlari nomzodi, PhD Sh.Xakimova taqrizi asosida

### HOZIRGI MANDARIN XITOIY TILIDA FONOLOGIK TIZIM VA UNING XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada hozirgi mandarin xitoy tilining fonologik tizimi va uning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada bo'g'in tuzilishi (initsial, final va ton), segmental birliklar hamda ton tizimining funksional jihatlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, tonlar sandhisi, neytral tonning fonetik xususiyatlari, erizatsiya hodisasi va assimilyatsiya jarayonlari batafsil ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** mandarin xitoy tili, fonologiya, bo'g'in tuzilishi, initsial, final, ton, ton sandhisi, neytral ton, erizatsiya, fonovariativlik.

### ФОНОЛОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА И ЕЁ ОСОБЕННОСТИ В СОВРЕМЕННОМ МАНДАРИНСКОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье анализируется фонологическая система современного мандаринского китайского языка и её основные особенности. В статье на основе научных источников освещаются структура слога (инициаль, финаль и тон), сегментные единицы, а также функциональные аспекты тональной системы. Кроме того, подробно рассматриваются явления тонального сандхи, фонетические особенности нейтрального тона, эризация и процессы ассимиляции.

**Ключевые слова:** мандаринский китайский язык, фонология, структура слога, инициаль, финаль, тон, тональное сандхи, нейтральный тон, эризация, фоновариативность.

### PHONOLOGICAL SYSTEM AND ITS FEATURES IN MODERN MANDARIN CHINESE

Annotation

This article analyzes the phonological system of modern Mandarin Chinese and its main features. Based on scientific sources, the article examines the structure of the syllable (initial, final, and tone), segmental units, and the functional aspects of the tonal system. In addition, the phenomena of tone sandhi, the phonetic features of the neutral tone, erhua (rhoticization), and assimilation processes are discussed in detail.

**Keywords:** Mandarin Chinese, phonology, syllable structure, initial, final, tone, tone sandhi, neutral tone, erhua, phonovariability.

**Kirish.** Chin Chuan Cheng tomonidan yaratilgan "Mandarin xitoy tilining sinxron fonologiyasi" nomli monografiyada putonghua fonetikasi lingvistik nuqtayi nazardan keng tahlil qilingan. Asarda xitoy tilining bo'g'in modeli, initsial va final tizimi, tonlarning funksional xususiyatlari hamda nutq davomida tovushlarning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi fonologik qonuniyatlar yoritib berilgan.

Muallifning ta'kidlashicha, xitoy tilidagi bo'g'in tarkibi an'anaviy ravishda uch asosiy komponentdan tashkil topadi: initsial - bo'g'inning boshlang'ich undosh elementi; final - bo'g'inning asosiy fonetik qismi; ton - bo'g'inning umumiy ohang naqshi.

Bo'g'in tarkibida ayrim hollarda initsial, medial yoki terminal qismlar ishtirok etmasligi mumkin, biroq bo'g'in markazi va tonning mavjudligi majburiy hisoblanadi. Final tarkibi esa odatda uch segmentdan iborat bo'ladi: medial element, yadro unli va terminal qism. Terminal segment vokalik yoki burun undoshi shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

Initsial va final tizimiga oid masalalarda xitoy tilidagi aspiratsiyali undoshlar ma'no farqlovchi fonologik belgi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotlarda ko'pincha palatal tovushlarning tabiati muhokama markazida bo'ladi, chunki ular odatda [i] va [y]/[ü] unllaridan oldin qo'llanadi. Mazkur tadqiqot muallifi palatal tovushlarni alohida va mustaqil

segment birliklari sifatida ko'rib chiqish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi.

Finallar tarkibidagi unllar tizimiga ko'ra, asosan quyidagi unllar faol qo'llanadi: i, ü, i (apikal unli) hamda u. Past unllarning artikulyatsion siljishi "orqa til qoidasi" asosida yuzaga keladi va bunda regressiv assimilyatsiya progressiv assimilyatsiyaga nisbatan ustunlik qiladi.

Ton tizimiga keladigan bo'lsak, xitoy tilida to'rtta asosiy ton va bitta neytral ton mavjudligi qayd etiladi:

birinchi ton - yuqori va tekis ohang;

ikkinchi ton - ko'tariluvchi ohang;

uchinchi ton - pastdan ko'tariluvchi murakkab ton

bo'lib, eng uzoq davomiylikka ega;

to'rtinchi ton - keskin pasayuvchi ohang.

Xitoy tilida tonlardan tashqari tonlar sandhisi hodisasi ham mavjud bo'lib, u nutq jarayonida tonlarning fonetik muhit ta'sirida o'zgarishini anglatadi. Bu hodisa talaffuzning tabiiyligi va nutqning ritmik uyg'unligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tonlar sandhisining eng keng tarqalgan qoidalari quyidagilardan iborat:

agar uchinchi tondagi bo'g'indan keyin yana uchinchi tonli bo'g'in kelsa, birinchi bo'g'in ikkinchi ton tarzida talaffuz qilinadi;

agar uchinchi tondan keyin uchinchi tondan boshqa ton kelsa, uchinchi ton to'liq emas, balki yarim uchinchi ton ko'rinishida, ya'ni yakuniy ko'tarilishsiz pastlashuvchi ohang bilan aytiladi.

Neytral ton boshqa tonlardan qisqa davomiyligi va kuchsiz talaffuzi bilan farqlanadi. Uning balandligi hamda intonatsion konturi odatda o'zidan oldingi bo'g'inning toniga bog'liq bo'ladi. Jumladan:

birinchi, ikkinchi va to'rtinchi tonlardan keyin neytral ton odatda past va pasayuvchi tarzda eshutiladi;

uchinchi tondan keyin esa ko'proq yuqori va ko'tariluvchi ohangda talaffuz qilinadi.

Bundan tashqari, neytral tonli bo'g'inlarda ko'pincha unli reduksiyasi hamda boshlang'ich undoshlarning jaranglashuvi kabi fonetik jarayonlar kuzatiladi.

Retrofleks suffiksatsiya, ya'ni erizatsiya hodisasi xitoy tilida so'z yoki bo'g'inga -r (-er, 儿) qo'shimchasining qo'shilishi bilan yuzaga keladi va u final tarkibining fonetik o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masalan, agar final [ŋ] burun tovushi bilan tugasa, erizatsiya jarayonida ushbu segment tushib qoladi hamda unli oldingi unli burunlashadi.

Fonovariativlik - tovushlarning kontekstga qarab o'zgarishi va talaffuzning muqobil shakllarda namoyon bo'lishi - xitoy tili fonologiyasining muhim, ammo yetarlicha chuqur tadqiq qilinmagan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Nutq oqimidagi talaffuz o'zgarishlari va alternativ fonetik shakllar tovushlar tizimining qat'iy qoidalari bilan birgalikda kompleks tahlilni talab etadi.

Fonovariativlikning asosiy jihatlaridan biri muqobil talaffuz variantlari hamda segmentlarning o'zgaruvchanligidir. Ayrim so'zlar bir necha xil talaffuz shakliga ega bo'lib, bu holat ko'pincha medial segmentlarning paydo bo'lishi yoki tushib qolishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, "paxta" ma'nosidagi 棉花 so'zi standart shaklda miánhua tarzida yozilsa-da, ayrim hollarda miénhua yoki miénhuo ko'rinishida talaffuz qilinishi mumkin. Shuningdek, tez-tez ishlatiladigan birikmalar ba'zan fonetik jihatdan birlashib, unli tovush sifatining o'zgarishiga olib keladi.

Fonovariativlikning yana bir muhim ko'rinishi reduksiya hodisasi. Bunda tovushlar to'liq emas, balki qisqargan yoki bo'shashgan tarzda talaffuz qilinadi. Ayniqsa, neytral tonli bo'g'inlarda fonetik reduksiya kuchli namoyon bo'ladi. Past ko'tarilishli unli markazlashib, neytral [ə]-ga yaqinlashadi. Masalan, "soch" ma'nosidagi fa ayrim nutq holatlarida fe tarzida eshutilishi mumkin. Shuningdek, jarangsiz undoshlar neytral ton ta'sirida jarangli ko'rinishda talaffuz qilinadi: masalan, p → b, t → d. Ayrim hollarda esa segmentlarning tushib qolishi kuzatilib, so'z talaffuzida qisqarish yuz beradi.

Nutq sur'ati ham fonologik o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tez nutqda ayrim segmentlar qisqarishi yoki tonlar o'zgarishi mumkin. Ayniqsa, ton sandhisi hodisasi qo'shni tonlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelib, uchinchi tonlarda eng faol namoyon bo'ladi.

Tez nutq jarayonida fonetik o'zgarishlar nafaqat kichik sintaktik birliklarda, balki butun gap miqyosida ham kuzatilishi mumkin. Bunday holatlar nutqning tabiiyligi va talaffuz qulayligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shunday fonetik hodisalardan biri eliziya bo'lib, bunda so'z tarkibidagi ayrim tovushlar talaffuzda tushib qoladi, biroq bu jarayon ma'noga ta'sir qilmaydi. Eliziya ko'pincha ikki bo'g'inli so'zlarda uchraydi: ikkinchi bo'g'inning boshlang'ich tovushi birinchi bo'g'inning oxirgi segmentiga qo'shilib ketadi. Masalan, wōmen ("biz") so'zi tez nutqda uōm tarzida qisqargan holda talaffuz qilinishi mumkin.

Fonovariativlikning yana bir muhim ko'rinishi sotsiologiyistik va dialektal farqlarda namoyon bo'ladi. Talaffuzdagi tafovutlar ko'pincha nutq egasining yoshi, hududi yoki madaniy-nutqiy an'analari bilan bog'liq bo'ladi. Jumladan, erizatsiyaning A va B shakllari mavjud bo'lib, -r / -er (/儿) qo'shimchali talaffuzning A turi asosan Pekin yoshlar nutqiga xos bo'lsa, B turi ko'proq katta avlod vakillari orasida uchraydi.

Bundan tashqari, Peking opera talaffuzida hozirgacha "o'tkir" va "yumaloq" tovushlar o'rtasidagi sun'iy farqlanish saqlanib qolgan. Bu holat palatal va nopalatal sirg'aluvchi tovushlarning qarama-qarshiligida namoyon bo'ladi, biroq zamonaviy putonghua talaffuzida bunday farq deyarli yo'qolgan.

Tonlarning pozitsion variativligi ham xitoy tilining muhim xususiyatlaridan biridir. Xitoy hududining kengligi sababli ayrim tonlar turli mintaqalarda turlicha realizatsiyalanadi. Masalan, uchinchi ton ayrim hududlarda so'z o'rtasida faqat pasayuvchi qism bilan, ya'ni yarim uchinchi ton shaklida talaffuz qilinsa, so'z oxirida to'liq ko'tariluvchi-pasayuvchi kontur bilan ifodalanadi.

Xitoy tilidagi fonovariativlikni metaforik jihatdan daryo oqimiga qiyoslash mumkin. Bu qiyosda initsiallar, finallar va tonlar daryo o'zanini tashkil etsa, ularning real nutqdagi akustik hamda artikulyatsion realizatsiyasi suv oqimining harakatiga o'xshaydi. Nutq sur'ati, qo'shni tovushlarning fonetik ta'siri va sintaktik chegaralar kabi omillar tovushlarning talaffuzini o'zgartirib, ularni kommunikativ vaziyatga moslashtiradi.

**Xulosa** qilib aytganda, mandarin xitoy tilining fonologik tizimi murakkab va dinamik tuzilishga ega bo'lib, bo'g'in tarkibi, segmental birliklar hamda ton tizimining o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Aspiratsiya, palatalizatsiya va tonlarning funksional ahamiyati uning asosiy tipologik belgilarini tashkil etadi.

Nutq jarayonida ton sandhisi, neytral ton, erizatsiya, assimilyatsiya va eliziya kabi hodisalar fonetik variativlikni kuchaytiradi. Shuningdek, nutq tezligi, hududiy va sotsiologiyistik omillar ham fonovariativlikka ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, mandarin fonologiyasi qat'iy tizim va yuqori darajadagi variativlik uyg'unligidan iborat bo'lib, uni o'rganish tilning funksional, semantik va stilistik xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Cheng, Chin Chuan. Synchronic Phonology of Mandarin Chinese. University of Illinois, 1973.
2. Duanmu, San. The Phonology of Standard Chinese. Oxford University Press, 2007.
3. Lin, Yen-Hwei. The Sounds of Chinese. Cambridge University Press, 2007.
4. Norman, Jerry. Chinese. Cambridge University Press, 1988.
5. Chao, Yuen Ren. A Grammar of Spoken Chinese. University of California Press, 1968.
6. Yip, Moira. Tone. Cambridge University Press, 2002.